

**YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI AMALIY SAN’ATI HAMDA  
JAMIYATIMIZDA UNI O‘SIB BORISHIGA HISSA QO‘SHUVCHI  
MARKAZLAR**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy  
Pedagogika Universiteti Tasviriy  
san’at yo‘nalishi 201-guruh magistri  
Abdurashidxonova Muslimaxon Baxodirxon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yog‘och o‘ymakorligi amaliy san’at turining shakllanish bosqichlari tarixdan hozirgi kungacha o‘z hissasini qo‘shgan bir qator taniqli ustolar va hunarmandlarni bugungi kunda yanada yuksalishi va dunyo bozorlariga chiqishiga xizmat qilayotgan markaz haqida keltirilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается процесс становления и развития искусства художественной резьбы по дереву как одного из видов декоративно-прикладного искусства. Особое внимание уделено вкладу выдающихся мастеров и ремесленников различных исторических периодов, а также деятельности современных центров, способствующих дальнейшему совершенствованию этого искусства и его интеграции на мировые художественные рынки.

**Annotation:** The article examines the evolution and development of the art of woodcarving as a form of applied decorative art. Particular attention is given to the contributions of distinguished masters and craftsmen throughout different historical periods, as well as to the activities of modern centers that foster the advancement of this art and its integration into the global art market.

Yog‘och o‘ymakorligi — bu xalq amaliy bezak san’atining eng qadimiy va yuksak turlaridan biri sanaladi. Odamlar qadimdan yog‘ochni nafaqat maishiy ehtiyojlar uchun, balki estetik go‘zallik yaratish vositasi sifatida ham ishlatganlar. Yog‘ochga o‘yib naqsh solish san’ati xalqning dunyoqarashi, didi va ijodkorligini aks ettirgan. Bugungi kunda ham bu san’at turi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, yangi bosqichga ko‘tarilib kelmoqda.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati Markaziy Osiyo ayniqsa O‘zbekiston hududida juda qadim zamonlardan buyon rivojlanib kelmoqda. Arxeologik topilmalar, qadimgi masjid, madrasalar, maqbaralar va saroylar bezaklari bu san’atning ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqalishini ko‘rsatadi.

O‘rta asrlar davrida, xususan, Xiva, Buxoro, Samarqand va Toshkent kabi shaharlarda yog‘och o‘ymakorligi san’ati yuksak darajada rivojlangan. Ayniqsa, Xiva ustalari — usta Shirin Murodov, Usta Jumaniyoz, Usta Rahim Matyoqubov kabi san’atkorlar o‘z ijodlari bilan bu sohani mukammal darajaga olib chiqishgan. Ular

eshik, darvoza, ustun, sandiq, mehrob kabi buyumlarni nihoyatda nozik o‘ymalar bilan bezashgan. Hozirda bu amaliy ijodkorlikni ularning shogirdlari davom ettirib kelishmoqda. Hunarmandchilik shu kabi yog‘och o‘ymakorligi an‘analar davomida ustozdan shogirdga yillar bo‘yi o‘tib keladigan yo‘nalish hisoblanadi. Yog‘och o‘ymakorligida islamiy naqshlar, girih naqshlari, geometrik shakllar keng qo‘llanilgan. Bu naqshlar ko‘pincha o‘zaro uyg‘unlashib, o‘zbek xalqining diniy, falsafiy va estetik qarashlarini buyumlarda aks ettirgan. Yog‘och o‘ymakorligining asosiy vositalari — bu kesuvchi uskuna ya’ni keskich asboblari va o‘yuvchi asboblari hisoblanadi. Oddiy, ammo mohirlik talab qilib foydalaniladigan asboblari hisoblanadi. Ustalar har bir o‘ymani chuqurligi, burchagi va yo‘nalishiga qarab turlicha bajaradilar. Har bir qismi bir biriga mutanosib va bir yo‘sinda bo‘lishi kerak. Eng mashhur uslublar quyidagilar: 1. Yassi o‘yma (naqsh o‘yma) – yuzaki o‘yilgan, silliq naqshlar, 2. Chuqur o‘yma – naqsh chuqurroq o‘yilib, soya-yorug‘lik o‘yini hosil qilinadi, 3. Orama o‘yma – naqshlar orasida bo‘shliq qoldiriladi, ko‘pincha deraza panjaralari va eshiklarda ishlatiladi, 4. Shabaka o‘yma – murakkab geometrik shakllardan iborat to‘r ko‘rinishidagi bezak turi. Hozirda bir nechta naqsh kompozitsiyalari turlari milliy mahsulotlarimizda qo‘llanilmoqda bular, Islimiy ya’ni (o‘simliksimon) ya’ni barglar, novda va gullardan tashkil topadi, Grih (geometrik) bu naqsh kompozitsiyasi shakllar va geometrik elementlardan tuziladi, Pargori naqsh kompozitsiyasi esa aslida pargori bu hozirgi kunda biz (sirkul) deb nomlaydigan chizma asbobining asl o‘zbekcha nomi sanaladi, ya’ni bu naqsh kompozitsiyasida pargorida chiziladigan asosan 75-80% qismi aylanalardan tashkil topgan naqsh turi hisoblanadi.



**Islimiy naqsh uslubida ishlangan penal****Grix naqsh uslubida ishlangan penal****Pargori naqsh uslubida ishlangan kursi**

Bugungi kunda yog‘och o‘ymakorligi O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida rivojlanmoqda. Toshkent, Xiva, Buxoro, Farg‘ona, Rishton, Samarqand kabi shaharlarda bu san‘at turi nafaqat ustozdan shogirdga o‘tib kelayotgan milliy meros sifatida, balki iqtisodiy ahamiyatga ega kasb sifatida ham e‘tirof etilmoqda. Sababi dunyo bozorlarida hunarmadlaning ijodiy ishlari o‘z o‘rnini egallamoqda. Zamonaviy texnologiyalar, kompyuter dasturlari va lazer o‘ymakorlik uskunolari yog‘och o‘ymakorligiga yangi imkoniyatlar yaratdi va ba‘zi jarayonlarni an‘anaviy tarziga qarganda osonroq qilishga yordam berdi. Biroq, qo‘l mehnati bilan bajarilgan asarlar hanuzgacha o‘z qadri va o‘ziga xosligini saqlab qolgan. Sababi bizning azaliy an‘analarimiz va qadriyatlarimiz o‘rni beqiyosdir.

Hozirda oliy o‘quv yurtlarida, ya‘ni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Hunarmandlar uyushmasi tizimidagi o‘quv markazlarida yoshlar yog‘och o‘ymakorligining sirlarini o‘rganmoqdalar. Ularning ishlarida milliy an‘analar bilan birga zamonaviy dizayn elementlari uyg‘unlashgan. Hunarmandlar uyushmasi ham hozirda ko‘plab hunarmand va ustoz-shogirdlarni istedodini shakllantirmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalq amaliy san‘atining barcha turlari qatori yog‘och o‘ymakorligi ham davlat darajasida e‘tiborga olindi. Shu maqsadda 1997-yilda “O‘zbekiston Hunarmandlar uyushmasi” tashkil etilgan. Bu uyushma mamlakatimizdagi hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, yosh avlodni hunarga o‘rgatish va milliy san‘at turlarini asrab-avaylash bilan shug‘ullanib kelmoqda. Uyushma quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat yuritib keladi: Hunarmandlarga xomashyo, asbob-uskunalar bilan yordam ko‘rsatish va Ustoz-shogird an‘analarini rivojlantirish hamda hunarmandlarning ishlarini ichki va xalqaro ko‘rgazmalarda targ‘ib etish va ularni ijod jarayonida o‘rishga hissa qo‘shmoqda. O‘zbekiston Hunarmandlar uyushmasi nafaqat ustalar uchun ijodiy platforma, balki milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi markaz vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, yog‘och o‘ymakorligi yo‘nalishida ko‘plab yosh iqtidor egalari shu uyushma ko‘magida o‘z ustozlarini topib, kasb sirlarini o‘rganmoqdalar. Bugungi kunda uyushma tomonidan tashkil etilayotgan “Hunarmandlar festivali”, “Milliy meros haftaligi” kabi tadbirlar yog‘och o‘ymakorligi san‘atini keng jamoatchilikka tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston xalq amaliy san‘ati tarixi. – Toshkent: “Fan”, 2018.
2. Karimov A. O‘zbek yog‘och o‘ymakorligi san‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2007.
3. “Hunarmand” uyushmasi rasmiy sayti – [www.hunarmand.uz](http://www.hunarmand.uz)
4. Behzod K. Amaliy bezak san‘ati asoslari. – Samarqand, 2015.